

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 312 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiyoy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumaye va	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi.....	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak.....	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность	232
Шерматовна Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности	238
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Меры по привлечению прямых иностранных инвестиций в национальные экономики.....	243
Ахмедова (Жабборовна) Нилуфар Икболжон кизи	



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг	248
Розоков Мухаммадазиз Мансурович	
Factoring Operations in Banks.....	253
Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish.....	257
Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati	264
Oybek Elmuratov	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish.....	268
Uzakova Umida Ruzievna	
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy	274
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	278
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari	284
Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi	288
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi	295
S. Y. Ismoilova	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	300
Qurbonova Firuza Solexovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi	306
AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich	



MOLIYAVIY SEKTORDAGI AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RISKLARNI BARTARAF ETISH



Jaxongirov Rustam Jaxongirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi



Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich

Toshkent kimyo-texnologiya instituti SIM
kafedrası mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirish va ishlab chiqishning nazariy uslubiy asoslari, korporativ strategiyaning turlari, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliya, aksiyadorlik jamiyatlari, aksiya, korporativ boshqaruv, korporativ strategiya, samaradorlik.

Abstract: In this article, proposals and recommendations for the formation and development of the corporate strategy of joint-stock companies in the financial sector, the types of corporate strategy, the effective organization of corporate management in the activities of joint-stock companies, and the improvement of the risk management system have been developed.

Key words: finance, stock company, stock, corporate management, corporate strategy, efficiency.

Аннотация: В данной статье представлены предложения и рекомендации по формированию и развитию корпоративной стратегии акционерных обществ финансового сектора, виды корпоративной стратегии, эффективная организация корпоративного управления в деятельности акционерных обществ, а также ее совершенствование, системы управления рисками.

Ключевые слова: финансы, акционерные общества, акции, корпоративное управление, корпоративная стратегия, эффективность.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlarida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro integratsiyasini faollashtirishda aksiyadorlik jamiyatlari ishtiroki tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, bozor munosabatlarining takomillashuvi va tezkor o'zgarishlarning hozirgi davrida aksiyadorlik jamiyatlarining samarali moliya-xo'jalik faoliyatini ular tomonidan puxta ishlab chiqilgan moliyaviy siyosati va uni amalga oshirish



mexanizmsiz ta'minlab bo'lmaydi. Bu aksiyadorlik jamiyatlarida samarali korporativ boshqaruvni tashkil etishda bugungi kunda jiddiy e'tibor qaratilayotgan muhim jihatlardan hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish, ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta'minlashga erishish, tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va bu borada ilg'or xorij tajribalaridan samarali foydalanishni dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Bugungi kunda yurtimizda moliyaviy sektorni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini kamaytirish maqsadida qilinayotgan har bir jarayon va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatimizning taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aksiyadorlik jamiyati shaklidagi tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha kafolatlash fondini tashkil etish va uning Ustav kapitalining boshlang'ich miqdorini O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi, davlat organlari va tijorat banklari – muassislar ulushlari hisobiga shakllantirish asosida Fondning tadbirkorlik subyektlarini kredit va boshqa moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashni kengaytirish, investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda kredit olish uchun garov ta'minotini taqdim etish imkoniyatini yaratish kabilarni amalga oshirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda jahonda korporativ boshqaruv amaliyotida yetuk va zamonaviy tajriba va shakllangan malakalarni o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Jahon amaliyotida moliyaviy sektor aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish har bir jamiyat tomonidan faoliyat sohasiga qarab, o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib ishlab chiqilgan korporativ risklarni boshqarish dasturi va mexanizmlari asosida amalga oshirilib boriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning nazariy asoslari, ularning korporativ boshqaruv muammolari, ular strategiyasini shakllantirish xamda risklarni boshqarish va bartaraf etishga qaratilgan masalalar B.Triker, M.Veber, I.Ansoff, P.Doyle, D.Kollis, S.Montgomery, L.Edvinson, S.Meloun, R.Kaplan, D.Norton, D.Djonson, K.Shoulz. singari xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida chuqur tadqiq etilgan MDX iqtisodchi olimlari tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning shakllanishi, korporatsiyalar faoliyatining mintaqaviy xususiyatlari, korporativ boshqaruvning iqtisodiy-huquqiy masalalari V.V.Avdeyev, A.M.Babashkina, Yu.T.Bazarov, L.V.Volkov, P.V.Juravlev, L.V.Kartashova, I.A.Kokorev, V.M.Kolpakov, Ye.B.Morgunov, I.I.Mazur, D.M.Mixaylov, I.N.Gerchikova, M.D.Kruk, M.V.Dokuchayev va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida keng joy egallagan. O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ risklarni boshqarish sohasida B.Yu.Xodiyev, B.B.Berkinov, D.N.Raximova, M.L.Tursunxodjayev, Sh.N.Zaynutdinov, J.A.Fattaxova, A.A.Xoshimov, R.I.Nurimbetov, M.B.Xamidulin, D.X.Suyunov, R.X.Karlibayeva, Sh.G'.Yuldashev, D.B.Begmatova, B.Urinov, Z.Ashurov va boshqalar o'z ishlarida tadqiq etganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bu tadqiqotda qo'llanilgan asosiy metodologiya deskriptiv tahlil bo'lib, u moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirish va ishlab chiqishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqotda komparativ tahlil metodidan ham foydalanilgan bo'lib, bu O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda korporativ strategiyani amalga oshirish tajribalarini solishtirish imkonini beradi. Ma'lumot to'plash usullari sifatida so'rovnomalar, moliyaviy hisobotlar, shuningdek, huquqiy va iqtisodiy hujjatlar tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish mamlakat moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi davlat budjeti daromadlarining o'z vaqtida va to'liq shakllanishida, uy xo'jaliklarining doimiy daromad manbasiga ega bo'lishlarida, tashqi savdo munosabatlarida, moliya-kredit muassasalarining barqaror ishlashida o'ziga xos vositachi vazifasini o'taydi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda korporativ moliyaviy munosabatlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar ichida millat mentaliteti muhim ahamiyatga egadir. Millat mentalitetini tashkil etuvchi elementlar (bilim salohiyati, ilmiy tafakkur, maqsad salohiyati, ijtimoiy muhit, qadriyatlar, an'analar, madaniyat, siyosiy muhit, iqtisodiy psixologiya, huquqiy ong va h.k.) iqtisodiy tizim va uni boshqarishga bevosita bog'liq omillar majmui hisoblanadi. Millat mentaliteti millatning shakllanish tarixi, uning qadriyatlari va bilim salohiyati kabilar asosida vujudga keladi. Bunda millat mavjud bo'lgan jamiyatning shakllanish va rivojlanish tarixi ham muhimdir.



Ko'pchilik bozorlarda kabi, sof raqobatga hech qanday qiyinchilik yo'q. Ular defitsit va assimetrikdir. Ularda sotuvchi va sotib oluvchilar cheklangan, mahsulot gomogen, axborotlarni foydasizligi yoki qandaydir firmaning boshqalariga nisbatan vakolatlariga egaligi hamda ko'chiligi bilan ajralib turadi. Boshqalar ishlab chiqarmaydigan mahsulot ishlab chiqarishi, yoki olib kelinishi cheklanganligi ularning alohida ustunligini belgilaydi. Mustahkam ishlab chiqilgan strategiya firmani, yaxshi tashkil etilmagan bozorda yuqori foyda oladigan strategiyalarni ishlab chiqqan holda o'zining talablarini qo'ya oladi. Bunday vaziyatda strategiya ikki muhim o'rinni egallaydi.

Birinchisi: bu firmaning shu tarmoqdagi firmalar bilan bir pozitsiyadaliqi. Kompaniyaning kuchli va kuchsiz tomonlarini, bozorning xavfli taraflarini hisobga olgan holda, samarali strategiya raqobatbardosh mavqe'i yaratishi imkonini beradi. Shuning uchun kompaniya raqobatli faoliyat yuritayotgan muhitni taqqoslay olishda strategiyani formulalash juda muhim.

Ikkinchisi: firma faoliyati va investorning ichki koordinatsiyasi. Strategiya bozordagi tanlashning foydaliligining tanlangandan keyingi vaziyatni o'rganadi. Firmaning bozordagi o'ri aniqlangandan keyin har bir punkti bo'yicha o'zaro tarmoqlar kelishishlari lozim. Xuddi shu tartibda investitsiyalar ham amalga oshirilishi lozim. Ular bir-birlarini o'zaro bog'lab turishlari va jamlashgan holda yuqori darajadagi raqobatbardoshlikni yuzaga keltirishi lozim.

Ishbilarmon kompaniyalar bu – uzining kuchlarini strategik yo'nalishlarga yo'naltirishidir. Mijozlar talablarini qoniqtirish uchun korxona umumiy tashkiliy strategiyaga rioya qilishi lozim. Yaxshi strategiya bozorda o'zining o'rnini mustahkamlashga yordam beradiki, shu o'rinda bu sotib oluvchilarning talablarini boshqa raqobatchilarga nisbatan muayan ravishda kuchaytiradi.

Aksiyadorlik jamiyati strategiyasi – segmentlangan bozorda muvozonatni raqobatchilarga nisbatan osonroq topishidir. Bu tashkiliy reja raqobatchilardan ustunligini belgilab beradi.

Strategiya quyidagilarga javob beradi:

- korxona raqobatbardoshligini qay darajada ekanligi;
- korxona o'zining nimalariga nisbatan raqobatchilardan ustunligini belgilaydi;
- korxonaning asosiy ustunligi nimalardan iboratligi.

Korporativ strategiya - bu Aksiyadorlik jamiyatining (firmaning) umumiy boshqaruv rejasi bo'lib, u diversifikatsiyalangan Aksiyadorlik jamiyatining turli sohalarda o'z biznes tamoyillarini o'rnatish yo'llari va usullarini, hamda takomillashtirishga hissa qo'shadigan harakatlar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Korporativ strategiyani ishlab chiqish quyidagi harakatlar bilan belgilanadi:

- devirsifikatsiyaga erishish bo'yicha harakatlar;
- korporatsiya allaqachon faoliyat yuritayotgan tarmoqlarda umumiy ko'rsatkichlarni optimallashtirish bo'yicha harakatlar;
- tegishli biznes bo'limlari o'rtasida sinergitek ta'sirga erishish va uni raqobatbardosh ustunlikka aylantirish yo'llarini topish;
- investitsiyalarning eng ustuvor yo'nalishlarini belgilash va eng istiqbolli yo'nalishlarda korporativ resurslarni safarbar etish.

Korporativ strategiyani ijro organi ya'ni yo'qori darajadagi menejerlar ishlab chiqadi, bunda o'rta va quyi pog'ona menejerlarini ishtiroki ham ta'minlanadi, ularning taklif va tavsiyalari ham inobatga olinadi.



1-rasm: Korporativ strategiyaning amalga oshirish kanallari



Shunday qilib, korporativ strategiyani asosiy roli bu, boshqaruvni birlashgan holda mijozlar talabini raqobatchilarga nisbatan sifatliroq amalga oshirish.

Strategiya tuzilishi – boshqaruvchi va vaqtinchalik boshliq vazifasini bajaruvchilarga o'rta bo'g'in boshqaruvchilar hamda ishchilar o'rtasida strategiyani tatbiq etishdan iboratligidir.

Zaif korporativ boshqaruv korporatsiyalarga investitsiyalarning kelishini cheklaydi va oqibatda o'sish hamda rivojlanishni ham cheklaydi. Korporativ rahbariyatning samaradorligiga ko'r-ko'rona ishonish shart emas. Korporativ boshqaruv global kapital uchun kurashishda tobora muhimroq omil bo'lib bormoqda. O'z ixtiyori bilan qabul qilingan "Biznes hulq kodeksi" qonuniy vahulqqa muvofiqlikni quvvatlashda rahbariyatni yaxshilash jarayonidagi birinchiqadam bo'lmoqda.

Korporatsiyalarning moliyaviy siyosati korporatsiyaning umumiy strategiyasining bir bo'lagi bo'lib, uning maqsad va vazifalariga to'g'ri kelishilozim. Korporatsiyaning rivojlantirish strategiyasi barcha mablag'larning samaralitaqsimlanishi va foydalanishini ta'minlaydi: moddiy, moliyaviy, mehnat resurslari, shuningdek yer va texnologiyalarining raqobotlilik muhitida barqarorlik darajasini saqlaydi.

Korporativ strategiyani mohiyati shundan iboratki, undan korxonani shu strategiyadan hozirgi davr talablari bilan birgalikda foyda oladimi yo'qmi belgilanadi. Korporativ strategiyani ikkita rivojlanish taxmini mavjud, birinchisi strategiyaga asoslanganligi, ikkinchisi korxona imkoniyati.

Biznes o'zining qimmatligini maksimallashtirish uchun 3 ta asosiy strategiyani hisobga olishi lozim. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun tahlil qilishi kerak.

- 1) korporativ strategiya;
- 2) biznes strategiya;
- 3) funksional strategiya.

Korporativ strategiya – birinchi bosqich - bu korxonani to'raligicha biznes yoki tashkiliyligini, tovar liniyalari, Aksiyadorlik jamiyati kombinatsiyalarini, uning to'liqligicha e'tirof etishini va qanday biznes bilan shug'ullanishiga javob beradi. Strategik faoliyatini korporativ bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi, masalan: yangi biznesni sotib olish, faoliyat yuritayotganini kengaytirish yoki kichraytirish, qo'shma korxonalarni tashkil etish.

Biznes strategiya - ikkinchi bosqich korxonaning raqobatbardoshligi va faoliyati strategiyasi bilan e'tirof etiladi. Korxonada boshqarishning individual strategiyasini ishlab chiqishdan iboratligidir.

Funksional strategiya – bu qo'shimcha qimmatlilik yaratishdir. Masalan: innovatsiyalardan foydalanish, diversifikatsiyalangan strategiya, marketing strategiyasi kabilar.


Korporativ strategiyani ishlab chiqishda Aksiyadorlik jamiyati xususiyatlarini, qaysi tarmoqda faoliyat yuritishi, va bozordagi holatini e'tiborga olish muhim hisoblanadi. Unda quyidagi strategiya turlaridan biri yoki bir nechtasini tashlashi mumkin:

- Diversifikatsiya bilan bog'langan strategiya
- Diversifikatsiya bilan bog'lanmagan strategiya
- Kapitalning siqib chiqarish va tugatish strategiyasi

Diversifikatsiya strategiyasi, tashkilotning biznes sohasi portfeliga, quyidagilar yordamida, biznesning yangi sohalarini kirishini ko'zlaydi:

- tashkilotga ega bo'lish;
- tashkilotni "boshidan" yaratish;
- qo'shma korxonalar yaratish;

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan moliyaviy sektor aksiyadorlik jamiyatlariga quyidagi aksiyadorlik jamiyatlarini kiritish mumkin:



2-rasm: Moliyaviy sektor aksiyadorlik jamiyatlarining turlari



Keyingi yillarda risklar tadqiq etilgan qator ilmiy ishlarda ularni minimallashtirishni amalga oshirish borasida ma'lum natijalarga erishish ta'kidlansada, mazkur jabhada hamon o'z yechimini kutayotgan qator muammolar mavjudligini alohida qayd etish lozim. Xususan, bu jarayonda risklarning mohiyati, ularning yuzaga kelish sabablari va o'zaro boqliqligi, shuningdek, oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan faoliyat, ya'ni riskmenejment imkoniyatlarinitadqiq etish iqtisodiy fanlarning dolzarb mavzularidan biri hisoblanishini qayd etish o'rindir.

Moliyaviy sektor aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida quyidagi moliyaviy risk turlarini samarali boshqarish tizimi ishlab chiqilib yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq:


Moliyaviy risklarning mohiyatini anglash

- Risk-menejment va uning mohiyatini o'rganish
- Moliya bozori risklari: turlari va tabiatini taqlil qilish
- Fond bozori risklarni boshqarish
- Bank risklarini boshqarish bo'yicha alohida bo'linma tashkil etish
- Kredit risklarini boshqarishni yo'lga qo'yish
- Valyuta risklarini boshqarishni tashkil etish
- Foiz risklarini boshqarishni tashkil etish
- Inflyatsiya risklarini boshqarishni tashkil etish
- Investitsiya risklarini boshqarishni tashkil etish

Ularning asosiy strategiyasi moliyaviy risklarni pasaytirish usullarini o'rgatishdan iborat bo'lib, natijada kompaniya risklarini maksimal darajada pasaytirish hamda foydani maksimallashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Risklarni o'rganish jarayonida, bir tomondan, risk-menejmenti imkoniyatlari birmuncha orttirib ko'rsatilishi moliyaviy risklar nazariyasi yaratilishiga bo'lgan talabni oshirgan bo'lsa, boshqa tomondan, shu kunga qadar "moliyaviy risk" tushunchasining mohiyati to'laligicha ochib berilmaganligi, bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borilishi kerakligini ta'kidlash lozim.

Moliyaviy risk tushunchasiga berilgan turli talqinlarga asoslanib va tadqiqotchilarning nazariy qarashlariga muvofiq risklarni quyidagi uch guruh kesimida turkumlash mumkin.



3-rasm: Moliyaviy risklarning guruhlanishi^[1]

- **Birinchi guruh riski.** Tadqiqotchilarning talqiniga ko'ra, risk keng ma'noda noma'lum voqelik bo'lib, uning yuz berishi oqibatida faoliyatga ijobiy yoki salbiy ta'sir yetkazilishi mumkin;
- **Ikkinchi guruh riski.** Olimlarning qarashlariga ko'ra, risk faoliyat sifatida yutuqli natijaga erishish maqsadida amalga oshirilgan sa'y harakat hisoblanadi;
- **Uchinchi guruh riski.** Tadqiqotchilar bu riskni muqobil variantlardan birini tanlash jarayonida yutuqqa erishish yoki xatoga yo'l qo'yish ehtimoli sifatida talqin etishadi.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, moliyaviy risklarining asosiy belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- mazkur risklar noaniqlik holatida yuzaga keladi va ularning asosiy mezonni ehtimollikka asoslanadi;
- riskning pirovard natijasi (oqibati) mol-mulkni yo'qotish, foydaniqo'ldan chiqarish hisoblanishi moliya institutlari faoliyati bevosita risk qamrovida kechishini anglatadi.



4-rasm: Moliyaviy risklarning asosiy belgilari



Yuqorida keltirilgan belgilarga asoslanib, qayd etish lozimki, moliya institutlari risklari ehtimolikka ko'ra, asosiy faoliyatidan kutilgan darajadagifoydaga erisha olmaslik yoxud uni yo'qotish hisoblanadi. Bu o'rinda ta'kidlashlozimki, moliyaviy risklarni tasniflashga bo'lgan yondashuvlar xilma-xildir.

Umuman olganda, moliyaviy risklar o'ziga xos tuzilmaga ega. Ular bozor riski, likvidlik riski, foiz riski, kredit riski va valyuta risklari kabilardan iboratligi qayd etgan tasnif birmuncha ilmiy asoslangan hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maqolamizning asosiy xulosalari va korxonalarda korporativ boshqaruvni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha takliflar quyidagilardan iborat:

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruvida xorijdan yuqori malakali, tajribali mutaxassislarni ishga jalb etish, ularning korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishga doir takliflari, tajribalaridan amaliyotda foydalanish asosida mamlakatimizda xalqaro standartlarga muvofiq korporativ boshqaruv tizimini joriy etishda mutaxassislarning professional saviyasini oshirish, korporativ boshqaruv madaniyati, etikasi, psixologiyasi va ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruvida moliyaviy siyosatni puxta ishlab chiqish va uni amalga oshirishning moliyaviy asoslarini ta'minlashda kapital qiymati, kapital tarkibi, pulning vaqt birligidagi qiymati hamda daromadlilik va risk darajasining o'zaro bog'liqligi konsepsiyalariga to'liq va muntazam amal qilinishini ta'minlash zarur.

1. O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimi shakllangan va u hozirda rivojlanib bormoqda, degan xulosaga kelindi. Biroq, milliy korporativ boshqaruv tizimida aniqlangan muammolarni hal etish, uni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish uchun quyidagilar taklif etiladi:
 - uzoq muddatga mo'ljallangan "Korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" ni ishlab chiqish va amalga oshirish;
 - korporativ boshqaruvni rivojlanishini targ'ib qiluvchi va ko'maklashuvchi jamoat tashkilotlarini yaratilishiga sharoitlar yaratish;
 - korporativ boshqaruv va respublika fond bozori o'rtasidagi uzviy aloqani fond birjasining listing mexanizmi orqali ta'minlash;korporativ qonunchilikka minoritar aksiyadorlar huquqlarini samarali himoyalash, korporativ boshqaruv organlari faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan normalarni kiritish;
 - aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;
 - xodimlarning aksiyalarga egalik qilish rejasi (ESOP) orqali ularni korporativ boshqaruvda ishtirok etishi mexanizmini rivojlantirish.
2. Korporativ boshqaruv bu aksiyadorlar va korxona raxbariyati o'rtasidagi munosabatlar tizimini aks ettirib, direktorlar kengashi, shu bilan birga boshqa manfaatdor shaxslarni o'z ichiga oladi va ular yordamida aksiyadorlar (investorlar)ga korxona boshqaruvchilari faoliyatini nazorat qilishning kompleks mexanizmi ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
3. Keyingi vaktlarda korporativ mulklarni korporativ boshqaruvini ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi roli o'sib bormoqda. Korporativ boshqaruv samaradorligi nafaqat mulk shakllariga bog'liq bo'lib kolmay, unda xo'jalik faoliyatini boshqaruvida turli mexanizmlar va bozor tarkibi ham ta'sir etadi. Bizning fikrimizcha, korporativ boshqaruv samaradorligi quyidagilarga:
 - moddiy rusurlarni optimal taqsimlanishiga;
 - xususiy mulk egaligini ta'minlash darajasiga;
 - erkin bozor raqobatiga;
 - korporatsiyalarni bozor holatlari bo'yicha axborotlar bilan ta'minlanishiga;
 - iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishni nazorat qilish darajasiga bog'liqdir.
4. Restrukturizatsiya qilish korxona faoliyati, boshqaruvi, moliya tuzilmasini tubdan o'zgartirishga yo'naltirilgan jarayonni o'zida aks ettiradi. Bunda ishlab chiqarishning barcha omillarini samarali ishlashini ta'minlaydigan korxonani tuzilmaviy qayta tashkil qilish biznes - birlik kompleksini, ya'ni kompleksning alohida boshqariladigan bo'limini tashkil qilishga mo'ljallangan.
5. Korporativ boshqaruv amaliyotini yaxshilash O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish jarayonining bir qismi bo'lib, u xususiy mulkni himoyalash, aksiyadorlar manfaatlari va huquqlarini ta'minlash, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida alohida o'rin tutuvchi investitsion jozibador, raqobatbardosh milliy korporatsiyalarni shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi masalalarni hal etishni taqozo qiladi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, korporativ boshqaruv doimiy ravishda rivojlanib boradi, o'z navbatida, kompaniyalar tomonidan qabul qilingan kodekslar bundan keyin jahon tendensiyalarining rivojlanishidan kelib chiqib takomillashtirilishi zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.K.Sattorov Moliyaviy risklarni boshqarish fanidan O'quv uslubiy majmua. Toshkent Moliya instituti. 2017 yil.
2. Khujamurodov, A. J., Djalilov, F. A., Khamzaev, A. N., & Umarkhujayev, A. M. (2023). Improving the infrastructure of the stock market in the context of economic modernization. In E3S Web of Conferences (Vol. 401, p. 03054). EDP Sciences.
3. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining camaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha komicciyaning 31.12.2015-yildagi majlisi (bayonnoma №02-02/1-187, 11.02.2016-y.) acocan tacdiqlangan Korporativ boshqaruv kodekci.
4. Tojiyeva Z. Korporativ boshqaruv tamoyillari va amaliyoti- <http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/37543-korporativ-boshqaruv-tamoyillari-va-amaliyot>.
5. G20/IHTTning korporativ boshqaruv tamoyillari/ ingliz tilidan Z.Ashurov tarjimasii. <http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/43217-g20ichttning-korporativ-boshqaruv-tamoyillari>
6. Khujamurodov, A. (2020). Theoretical Aspects Of The Development Of Stock Market Infrastructure // Архив научных исследований, 35(1). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3454>
7. Makhmudov, S., Khamdamov, S. J., Karlibaeva, R., Mamadiyarov, Z., Haydarov, O. R., Khujamurodov, A., & Imomov, K. (2023, December). The Impact of Digital Technologies on the Labor Market of Uzbekistan. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 260-267).
8. Ашуров, З. А. (2019). Совершенствование организационно-экономического механизма корпоративного управления в акционерных предприятиях (Doctoral dissertation, Ташкентский государственный экономический университет).
9. Ashurov, Z. (2023). Samarali korporativ boshqaruvning mamlakat barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri// "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami., 19-21.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.